



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTONDA BRONZA DAVRI QISHLOQ JAMOALARI TURAR- JOYLARI MUDOFAA INSHOOTLARINING O‘RGANILISHI

Satimov Bahodir Mangliboy o‘g‘li

Urganch innovatsion universiteti, dotsent

Rahimov Alisher

Urganch innovatsion universiteti, magistranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston tarixiy-geografik hududlari aholisi bronza davri manzilgohlari mudofaa tizimi tarixi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Itina.M.A, Sobirov Q, Matyoqubov X.X, Abdullayev O‘. M, Matbabayev B.X, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Toshkent, Surxandaryo, Farg‘ona, Sopolli, Chust, Yog‘ochband, Andranova, Zomonbobo.

ИЗУЧЕНИЕ ОБОРОНИТЕЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЙ ЖИЛИЩ СЕЛЬСКИХ ОБЩИН БРОНЗОВОГО ВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Сатимов Бахадир Манглибой угли

Ургенчский инновационный университет, доцент

Рахимов Алишер

Ургенчский инновационный университет, магистрант

Аннотация

В статье анализируется история оборонительной системы поселений бронзового века населения историко-географических регионов Узбекистана.

Ключевые слова: Итина М.А., Собиров К., Матёкубов Х.Х., Абдуллаев О.М., Матбабаев Б.Х., Узбекистан, Центральная Азия, Устюрт, Нижняя Амударья, Зарафшан, Ташкент, Сурхандарья, Фергана, Сополли, Чуст, Йогочбанд, Андранова, Зомонбобо.

STUDY OF DEFENSIVE STRUCTURES OF DWELLINGS OF BRONZE AGE RURAL COMMUNITIES IN UZBEKISTAN

Satimov Bahodir Mangliboy ugli

Urgench Innovative University, Associate Professor

Rahimov Alisher

Urgench Innovative University, Master's Student

Abstract

The article analyzes the history of the defense system of the Bronze Age settlements of the population of the historical and geographical regions of Uzbekistan.

Keywords: Itina.M.A, Sobirov Q, Matyokubov X.X, Abdullayev O.M, Matbabayev B.X, Uzbekistan, Central Asia, Ustyurt, Lower Amudarya, Zarafshan, Tashkent, Surkhandarya, Fergana, Sopolli, Chust, Yogochochband, Andranova, Zomonbobo.

Markaziy Osiyo markazida O‘zbekiston joylashib, uning geografik manzarasini Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Surxandaryo, Toshkent va Farg‘ona dehqonchilik vohalari ta’sir qilib, uning strategik ahamiyatini belgilab bergan, uning boshlanishi ilk tosh davridan boshlab, tabiiy g‘or-makonlar va tekislik buloqlar sohili atroflarida o‘rnashgan ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyatlari natijalariga borib bog‘lanadi. Vatanimiz viloyatlarida turli nomda arxeologik ekspeditsiya va guruhlar ajdodlarimiz tomonidan qoldirib ketilgan turar-joylarda keng qamrovli

tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarida olingan artefaktlar (million yildan bronza davrigacha murakkab hayot va ijod uyg'unligini yoritadigan manbalar olingan, uning natijalari esa turli nashrlarda o'z makonini topgan). Ushbu maqola tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil asosida vujudga kelgan innovatsion g'oyalar va yondashuvlar asosida ajdodlarimizning bronza davrigacha bosib o'tgan tarixiy tajribasini yoritishga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'tgan asr adabiyotlar va mustaqillik yillarida tadqiqotlar nashrlar sahifasida qayd qilingan tarixiy ma'lumotni asos qilib, ushbu maqolani yoritish imkoniyati mavjud. XX asr 50-yillaridan boshlab, Quyi Amudaryo regionida Xorazm ekspeditsiyasi bronza davriga mansub yodgorlikda qazishma ishlarini olin borish natijasida olingan moddiy ashyolar mazkur davrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar, turar-joylar qurilishi, masalalari, aholining bunyodkorlik faoliyatlari natijalari jamiyatning notekis rivojlanishini oydinlashtirdi [1. 1959 – C 52-150. 2. 1963-C 103-106. 3. 1960-C 82-103. 4. 1976-C 527. 5. 1977-237 C]. Tadqiqotchi Q. Sobirov monografiyasida mil. avvalgi III-II ming yilliklarda Xorazm vohasi aholisida hunarmandchilik, uy-chorvachiligi, uy-joylar qurilishida yarim yerto'la ustunligi qayd qilingan [6. 2009-B 84]. X. Matyaqubov esa, Janubiy Orolb'yi havzasida bronza davri yodgorliklari topografik joylashishiga, ya'ni uy-joylar 30-50-100 m, ba'zi 400 m bir-biridan masofada joylashgan [7. 2014 -B 43].

U.I. Abdullayev monografiyasida Sopolli manzilgohi uch qatorli mudofaa devori to'g'risida xulosalarni qayd qilgan [-8. 2019 – B 198].

Farg'ona vodiysi tadqiqotchisi B. Matboboyev maqolasida Chust yodgorligi paxsa va xom-g'ishtdan mudofaa devor o'rab olinganligini xulosa qilgan [9. 2002-69-70]. Tadqiqotchilar tomonidan chop qilingan nashrda Surxon vohasi Sopollitepa va Chust yodgorliklari joylashishi, mudofaa tizimi to'g'risida ma'lumotni bergan. Shu bilan birga Chust madaniyati tarixini 3 guruhga ajratgan, ya'ni,

1. Yirik manzilgohlar (13-25 ga)
2. O'rta hajmli – 1,5 ga
3. Mayda manzilgohlar – 0,1 – 0,9 ga [10. 2023 – B 80].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilar izohlanadi: obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlili, munozara, umumlashtirish, xulosa, arxeologiya, geografiya, etnografiya fanlari yutuqlaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonning bronza davri jamiyatida yuz bergan jarayonlar mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, o'tgan asr va mustaqillik yillari nashrlarida qayd qilingan fikr-mulohazalar bo'yicha quyidagi tarzda tahlil qilindi. O'zbekiston neolit davri urug' jamoa asrining xo'jalik sohasida erishilgan natijalari ahamiyati eneolit davrida saqlanib qolgan. Misol tariqasida, Ustyurt platosida neolit davri urug'– jamoalari (Isatoy-Churik, Kaskajal), Quyi Amudaryo hududida (Jonbos 30, 32, 33, 34, Sulton Sanjar, Qo'shbuloq), Quyi Zarafshon vodiysida (Darbozaqir-2, Uchashi-131), O'rta Zarafshonda (Sazag'on-11, Tepaqul, Joshgan) Toshkent vohasida (Qo'shilish, Bo'zsuv 1-v), Farg'ona vodiysida (Mingbuloq, Madyor) etnik munosabatlarini olib borib, eneolit davri jamiyatini rivojlantirish barobarida bronzaga qadam qo'ydilar.

Bronza davri Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, Toshkent, Farg'ona vodiysi chorvadorlar andranova qabilalari kelib joylashib, mahalliy aholi bilan omuxtalashib, yarim yerto'lalar yashab, yangi madaniyatni olib borganlar, bular havzasida Amirobod, Quyi Zarafshon, Zomonbobo, Farg'ona vodiysida Chust madaniyati tarkib topgan.

Bronza asri oxiriga kelganda O'zbekiston hududida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarda, turar-joy tuzilishi, qurilish sohasida bir-biridan farqlangan xususiyatlari kuzatiladi. Mazkur xususiyatlarni inobatga olib turar-joylar topografik tuzilishi, miqdoriy jihatdan, kundalik ashyolari, aholining olib borgan moddiy-ma'naviy madaniyati mohiyatidan kelib chiqib xo'jalik-madaniy hududlarni bronza davri so'nggi bosqichida quyidagi guruhlarga bo'lish

mumkin:

1- guruh: Ustyurt platosi, Quyi Amudaryo, Zarafshon daryosi havzasi, O'rta Qizilqum, Toshkent vohasi turar-joylar yarim yerto'la, yog'och ustunli, mehnat qurollari tosh, suyak idish-tovoqlar qo'lda ishlangan, xo'jaligi hunarmandchilik, chorvachilik, "qayr" dehqonchiligi diniy g'oyasi-olov, hajimo 0,6-0,60 m.

2- guruh Farg'ona vodiysi vodiysi va Surxandaryo viloyati – turar-joylar qurilishida paxsa, guvala mudofaa devor bilan o'rab olingan ark (Chust), ichki tuzilishi yerto'la uy-joylar, hajmi 4 ga Farg'ona vodiysi

3- guruh Surxandaryo viloyati Muzrabot dashti, tekislik, paxsa va to'g'riburchak g'ishtdan tiklangan 3 qatorli mudofaa devor o'rab olgan. Tashqi va ikkinchi devor II-shaklida devor – II- shaklida to'g'ri burchakli burj shaklida. Bronza davri so'nggi choragi tashqi devorda to'g'riburchak burchi mudofaa elementi sifatida keyingi turar-joylar qo'llanilishi boshlangan.

Chust va Sopollitepa mudofaa devori tuzilishida farqlanish alomati kuzatiladi, ya'ni Chust tashqi mudofaa devori burjlardan xoli, ammo ichki tuzilishi ark va shahristondan iborat. Sopollitepa ichki tuzilishida ark yo'q, lekin har tomonda markazdan yo'lak o'tgan joydan turar-joylar ikki mahallaga bo'lingan, paxsa va to'g'riburchakdan qurilgan uy-joylar me'moriy majmuani tasvir qilgan. Bu esa, O'zbekistonning Farg'ona va Surxandaryo hududlarida istiqomat qilgan aholi turar-joylar qurilishida mudofaa bilimlarini qo'llaganlar, bu jarayon keyingi tarixiy davrda turar-joylar qurilishida davom etgan. Mustaqillik yillari tadqiqotchilari asarlarida Chust va Sopollitepa mudofaa inshootlari to'g'risida fikr-mulohazalari ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchi O'.I. Abdullayev Sopollitepa o'rab olgan 3 qatorli mudofaa devorini esga olgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotchilar nashrlarda qayd qilingan ma'lumotlar asos qilib quyidagi xulosalarni qayd qilish mumkin:

- Eneolit davri aholisini amaliy natijalari bronza davrida kechgan iqtisodiy-etnomadaniy rivojlanishiga ta'sir etgan.

- Mil.avv II ming yillik birinchi – ikkinchi yarmida Yog'ochband va Andranova qabilalari Xorazmda, andranova qabilalari guruhlari Toshkent va Farg'ona vodiysida o'rtnashganlar. Xorazm vohasi o'ng sohili – janubiy Oqchadaryo havzasida kelgindi va mahalliy aholi aralashib Tozabog'yob madaniyatini hosil qilganlar. Quyi Zarafshonda Zomonbobo, Farg'ona vodiysida Chust, Surxondaryoda Sopolli madaniyatlari tarkib topgan. Mil.avv XVII – IX asrlarda Farg'ona Chust va Surxondaryoda Sopollitepa yodgorliklari mudofaa tizimga ega bo'lganlar. Takliflar quyidagicha izohlanadi: O'zbekiston tarixiy-geografik viloyatlarida bronza davri jamiyatining notekis rivojlanishi sabablarini chuqur o'rganish zarur bo'lib, bunda tabiiy-geografik sharoitlar, suv resurslari taqsimoti, iqlim omillari hamda xo'jalik yuritish shakllarining hududlar kesimida farqlanishi asosiy omillar sifatida tahlil etilishi lozim. Shu bilan birga, bronza davri jamiyatining barcha sohalari rivojlanishida iqtisodiy omillarning tutgan o'rnini izohlash muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvi, hunarmandchilikning rivoji, savdo aloqalarining kengayishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi ilmiy asosda yoritilishi kerak. Bundan tashqari, Chust va Sopollitepa madaniyatlariga oid mudofaa inshootlarining tarixiy o'rni va ahamiyatini ochib berish orqali ushbu davrda harbiy-siyosiy munosabatlar, tashqi tahdidlar va ijtimoiy tashkilotlanish darajasi haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi, bu esa bronza davri jamiyatining kompleks rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Итина М.А. Новые стоянки тазабагъябской культуры (работы 1956 г.), МХЭ, вып. 1, М., 1959.
2. Итина М.А. Раскопки стоянки Кават-3 в 1958// МХЭ,; М,Наука, 1963. Вып-6- с. 103-106.
3. Итина М.А. Раскопки стоянок тазабагъябской культуры // МХЭ. – М., 1960. Вып. 4. С 82-103.

4. Итина М.А. Раскопки на Акчадарье // АО 1976- АО 1977. -М.: “Наука”,1977. С 527.
5. М.А. Итина. История степных племён Южного Приаралья (II — начало I тысячелетия до н.э.). / Тр. ХАЭЭ. X. М.: 1977.
6. Собиров Қ Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари муҳофизатини янгилаш ва янгилашнинг тарихи – Тошкент, Фан, 2009.
7. Матякубов Х.Х. Хоразм воҳаси бронза даври ва илк темир даври тарихи-Тошкент, 2014.
8. Абдуллаев Ў.И Ўрта Осиё ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи-Тошкент, 2019.
9. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари//Ўзбекистон тарихи – 2002. №1ю
10. Ўзбекистон тарихи- Тошкент, Ўзбекистон, 2023. Т. 1.